

## TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL QILISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Misirov Xurshid Mamasobirovich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
ORCID: 0009-0007-3237-9624  
[misirovxurshid44@gmail.com](mailto:misirovxurshid44@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada temir yo'l transporti korxonalarida moliyaviy hisobni tuzish, hisob siyosatini shakllantirish, ma'lumotlarni hujjatlashtirish hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish va xalqaro standartlarga muvofiq yuritishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** temir yo'l transporti korxonalari, moliyaviy hisob, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, moliyaviy hisobot, hisob siyosati baholaridagi o'zgarishlar, o'tgan davrlar xatosini tuzatish, retrospektiv, perspektiv usullar.

## ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

**Мисиров Хуршид Мамасобирович**  
Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В статье рассмотрены вопросы подготовки финансовой отчетности на предприятиях железнодорожного транспорта, формирования учетной политики, документального оформления данных и их отражения в финансовой отчетности и управлении в соответствии с международными стандартами.

**Ключевые слова:** предприятия железнодорожного транспорта, финансовый учет, международные стандарты финансовой отчетности, финансовая отчетность, изменения в оценках учетной политики, исправление ошибок прошлых периодов, ретроспектива, перспективные методы.

## PECULIARITIES OF ORGANIZING FINANCIAL ACCOUNTS IN RAILWAY TRANSPORT ENTERPRISES BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS

**Misirov Khurshid Mamasobirovich**  
Tashkent State University of Economics

**Abstract.** The article deals with the preparation of financial accounts in railway transport enterprises, the formation of accounting policies, the documentation of data and the reflection in financial reports and management in accordance with international standards.

**Keywords:** railway transport enterprises, financial accounting, international standards of financial reporting, financial reporting, changes in accounting policy estimates, correction of errors of past periods, retrospective, prospective methods.

### **Kirish.**

Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida jadal rivojlanib borayotgan bir davrda barcha davlatlar qatorida O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchi korxonalar ham iqtisodiy jihatdan rivojlanish va tovar aylanmasi hajmini o'sishga harakat qilmoqda. Shu sababdan temir yo'l transporti korxonalarini faoliyat jarayonlarini raqamlashtirish, zamonaviylashtirish va xorijiy investorlarni jalg qilish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki respublikamizda faoliyat yuritayotgan "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati (AJ) eng muhim sohalardan bo'lib, bu sohani har tomonlama rivojlantirish maqsadida temir yo'l transporti korxonalarini rivojlangan xorijiy davlatlar bilan ish tajribalarini o'rganish, yangiliklarni amaliyotga joriy etish yuzasidan hamkorlikni yanada yaxshilash lozim.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev (2021) ta'kidlaganidek, aholiga har tomonlama ko'maklashish zarur deb ta'kidlagan, 20 avgust 2021 yildagi murojaatida. Shunday ekan, temir yo'l transporti korxonalariga investitsiyalarni jalg qilish hamda investorlar sonini ko'paytirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilishni kengaytirish lozim.

Shuni takidlash lozimki, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tomonidan 2022-yil yakunlariga ko'ra yuk tashish aylanmasi 24.9 milliard tonna/km.ni, yo'lovchilarni tashish aylanmasi 3510 mln yo'lovchi/km.ni tashkil etgan, bu ko'rsatkichlardan ko'rinish turibdiki, temir yo'l korxonalarini mamlakat iqtisodiyotiga yuqori hissa qo'shganligini ko'rsatib turibdi, lekin bu ko'rsatgichlar ko'lamenti kengaytirish orqali temir yo'l transporti sohasini kelgusida iqtisodiy rivojlanishi va zamonaviylashuvi zarurligini inobatga olgan holda, sohaga kiritilayotgan investitsiyalar ulushini ko'paytirish, qolaversa hizmatlar sifatini oshirish va yaxshilash davr talabidir.

Albatta hozirgi vaqtda, har bir sohaga xorijiy investorlarni hamda kreditorlarni jalg qilish, bu o'z navbatida bo'lg'usi sarmoyadarlarning ishonchini, qiziqishini oshirish maqsadida korxonalar moliyaviy hisobotini xalqaro standartlar asosida tuzish va taqdim etishi lozim.

Mazkur jarayonga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldag'i "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611 sonli (Qaror, 2020) qarori qabul qilindi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida tuzish uning shaffofligini va foydalanuchilar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda temir yo'l transporti korxonalarini moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish va taqdim etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili, moliyaviy hisobning xalqaro standartlari asosida tashkil etish bo'yicha xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar o'z fikrlarini bildirganlar.

Xorijiy iqtisodchi olim Sutton (2004) moliyaviy hisob – bu moliyaviy xulosalar chiqarish, tashkilotning buxgalteriya hisobi tizimidan olingan ma'lumotlar va uni tashkilotdan tashqarida bo'lgan foydalanuvchilar manfaatiga xizmat qiladigan yillik hisobotlar shaklida (tez-tez) nashr etish jarayonidir tariflagan.

Kieso, Weygandt, Warfield (2004) moliyaviy hisob - tashqi va ichki foydalanuvchilar uchun yaxlit holda korxonaning moliyaviy hisobotlarini tayyorlash bilan yakunlanadigan jarayondir deb ta'kidlagan.

Needles, Anderson, Caldwell (1987) moliyaviy hisob – bu tashkilot ichidagi menejerlar tomonidan qo'llaniladigan ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda, tashkilotdan tashqaridagi foydalanuchilarga taqdim etiladigan buxgalteriya ma'lumotlarini anglatadi hamda qaror qabul qilish uchun foydali bo'lgan ma'lumotlarni va taqdim etuvchi qayta ishlaydigan axborot tizimidir degan fikirni bildirganlar.

Arnold, Hope, Southworth, Kirkham (1994) moliyaviy hisob – bu menejerlarning harakatlarini baholash va kelajakni bashorat qilish uchun qaror qabul qiladigan ma'lumot

to'plamidir degan fikrni bergen.

Getman, Terexova, Shneydman (2004) moliyaviy hisob - bu tashqi foydalanuvchilar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun amalga oshiriladigan buxgalteriya hisobidagi ma'lumotlar. U qat'iy tartibga solinadi va belgilangan tartiblarga bo'ysunadigan, buxgalteriya hisobi qoidalari (standartlari)ga muvofiq tuzilgan hujjatdir deb fikr bildirganlar.

Kondrakov (2008) "Moliyaviy hisob - bu nafaqat ichki boshqaruv uchun foydalaniladigan, balki kontragentlarga, ya'ni uchinchi tomon foydalanuvchilariga ham xabar qilinadigan ma'lumotlarni qamrab oladi", deb hisoblaydi.

Pardaev, Pardaevalar (2008) moliyaviy hisobga quyidagicha ta'rif bergan. Moliyaviy hisob - bu tashqi foydalanuvchilarni moliyaviy hisobot ma'lumotlari bilan ta'minlashdir.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarga asoslanib, moliyaviy hisobga quyidagicha ta'rif berildi.

Moliyaviy hisob – bu manfaatdor foydalanuvchilarning keng doirasiga taqdim etiladigan ma'lumotlar bo'lib, bu ma'lumotlardan foydalangan holda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va korxona faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash hamda ro'yxatga olish jarayonidir<sup>27</sup>.

Umuman olganda, moliyaviy hisob an'anaviy hisobini o'zida mujassam etgan holda, xo'jalik faoliyatini boshqarishda unga xos bo'lmagan ma'lumotlarni shakllantirish va yurtishda etiyoj sezmaydigan (bu bilan xo'jalik ichidagi ba'zi muomilalarni o'z ichiga olivchi) odatiy hisob turi hisoblanadi.

Moliyaviy hisobning asosiy vazifasi korxonaning moliyaviy natijalarini, uning mulkiy va moliyaviy holatini hisobga olishning ishonchliligi hisoblanadi.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada analiz va sintez, guruhlash, taqqoslash, induksiya va deduksiya, monografiya, kuzatish va boshqa usullaridan keng foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Temir yo'l transporti korxonalarida moliyaviy hisob va hisobotlarni milliy standartlardan halqaro standartlarga o'tkazish 2015 yildan boshlab, xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish orqali yo'lga qo'yilgan. Bu esa moliyaviy hisobotdan tashqi foydalanuvchilar uchun nashr qilingan moliyaviy hisoblarga qiziqishni ortirmoqda.

Shu sababli, 2015 yildan buyon, temir yo'l transporti korxonalarida e'lon qilib kelinayotgan moliyaviy hisobotlar birinchi transformatsiya qilingan vaqtida 3 ta davrni, undan so'ng yil oxiri va yil boshiga 2 ta davrni hisobga olgan holda tuzilib kelingan.

Moliyaviy hisobni tashkil qilishda eng asosiy hujjatlardan biri bo'lgan hisob siyosati hisoblanadi 8-BHXS "Hisob siyosati" baholardagi o'zgarishlar va xatolar" nomli xalqaro standartlarga muvofiq tarzda tuziladi.

Shundan kelib chiqqan holda, temir yo'l transporti korxonalarida hisob siyosatini xalqaro standartlar asosida tuzish ushbu korxona va uning tarkibidagi korxonalar uchun moliyaviy hisobni to'g'ri tashkil etishda asosiy hujjatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Temir yo'l transporti korxonalarida moliyaviy hisobot shakillari xalqaro standartlarga ko'ra quyidagi shakillardan iborat:

- moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot;
- foyda va zararlar hamda jami umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot;
- pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot;
- kapital o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot;
- hisob siyosatiga izoh va boshqa ma'lumotlarga tushuntirishlar.

Yuqoridagilardan ko'rishimiz mumkinki, moliyaviy hisobot shakllariga alohida e'tibor berilib, hisob siyosati bo'yicha izohlar qismida ma'lumotlarning foydalilagini oshirish uchun har bir hisobot shaklli bo'yicha hisobotdagi tushuntirishlarni batafsil keltirilishi uning tushunarli


<sup>27</sup> Muallif fikri.

hamda shaffofligini ta'minlashga o'z hissasini qo'shmaqda.

Tadqiqotlar natijasida 8-BHXS "Hisob siyosati" baholardagi o'zgarishlar hamda xatolar standartiga asosan hisob siyosatini tuzish va unga amal qilgan holda moliyaviy hisobni yuritish imkoniyatiga erishiladi, qolaversa ko'plab xorijiy davlatlar foydalani kelinmoqda, MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tuzish, taqdim etish imkoniga erishamizni davr talab etmoqda.

Temir yo'l transporti korxonalarida MHXSga muvofiq, hisob siyosatining tarkibiy qismini quyidagi 1-rasmda keltirib o'tamiz.

### Moliyaviy hisobotni BHXM asosida yuritish uchun hisob siyosati



### 1-rasm. Temir yo'l transporti korxonalarida moliyaviy hisobotni tuzish uchun hisob siyosatining tarkibiy tuzilishi

Hisob siyosati - bu tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlashda va taqdim etishda qo'llaniladigan muayyan tamoyillar, me'yorlar, asoslar, usullar, umumqabul qilingan shartlar va amaliy yondashuvlardan iborat.

MHXSlarni turli mamlakatlarda milliy hisob tizimiga muvofiq ravshda qo'llanilishi ko'zdautilganligi sababli ular tarkibiy tuzilishi bo'yicha ham barcha uchun bir xil bo'lishi kerak. MHXSlar tarkibi bo'yicha uch qismidan iborat bo'lib: Birinchi qism - kirish, ikkinchi qism - hisob ob'ektining tavsifi (ochilishi), uchinchi qism - buxgalteriya hisobi standarti (xulosasi) deb

ataladi. MHXSlar o'zlarining o'ta muvofiqligi bilan ajralib turadi. Xalqaro standartlar asosida O'zbekiston Temir yo'l transporti korxonalari moliyaviy hisobotlarini yuritishda o'zlarining asosiy yo'naliшlarini belgilaydi. MHXSlarni ishlab chiqishga bunday yondashish ularning mamlakatlarda qo'llanilish imkoniyatini oshiradi va milliy hisob standartlarini xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi paytda nashr qilingan MHXSlar bir-biriga bog'liqdir va birgalikda yagona tizimni tashkil etadi. Bunda, bitta standartning qo'llanilishi, uzlusiz tizimning boshqa qismlarini qo'llashni talab qiladi, ya'ni bitta standartni boshqa standartlardan alohida ajratgan holda qo'llab bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasida MHXSlarga o'tishda o'ziga xos va milliy iqtisodiyotimizga mos yo'l tanlandi. Bu esa bevosita xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish yoki milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga muvofiq transformatsiya qilish orqali erishilishi mumkin. Birinchi yo'l xalqaro standartlar asosida to'g'ri va sifatli moliyaviy hisobot tuzishga erishishni ta'minlaydi. Ikkinchi yo'lda esa transformatsiya jarayonida ko'plab muammo va to'siqlarga duch kelish mumkin. Lekin ikkita yo'lning yechimida ham xalqaro standarlarning mazmun va mohiyatini chuqur o'rganish, uning metodologik masalalarini qo'llay olish, milliy standartlarimizni imkon qadar xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishimiz, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar tajribalarini respublikamizda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarga joriy qilishida MHXS standartlarini o'rganishda alohida ajralib turadi.

1-rasm ma'lumotlardan ko'rib turibdiki, temir yo'l transporti korxonalarida hisob siyosatini MHXS asosida tuzilishi moliyaviy hisobotlarni sodda, tushunarli va uning tashqi foydalanuvchilar uchun shaffofigini oshiradi.

Hisob siyosatidagi o'zgarishlar retrospektiv usulda, ya'ni o'tgan davrdagi xatolarni tuzatish orqali, buxgalteriyadagi baholar esa perspektiv, ya'ni joriy davrda hisobni davom ettirish, xatolarni tuzatish esa retrospektiv usulda amalga oshiriladi.

Shundan ko'rishimiz mumkinki, hisob siyosatidagi xatolar va o'zgarishlarni moliyaviy hisobotda uchta davrga, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotidagi jiddiy va muhum xatolarni ko'rsatilishi orqali tuzatiladi.

Bu esa, o'sha korxonalarda oldingi davrda yo'l quyilgan xatolar mavjudligidan dalolat beradi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda moliyaviy hisobni yuritishda hisob siyosatiga to'g'ri amal qilinsa, moliyaviy hisobotlardagi jiddiy xatolar kamayishi hamda ularning yanada tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJda moliyaviy hisobotni tuzish uchun asosiy hujjat hisob siyosati hisoblanadi va uni halqaro standartlarga muvofiq tuzish va tuzilgan moliyaviy hisobotlarni foydalanuvchilarga taqdim qilish etish muhim hisoblanadi.

Qolaversa, temir yo'l transporti korxonalarida MHXS bo'yicha moliyaviy hisobotlarni tuzishda asosiy hujjat bo'lib, uning tarkibidagi korxonalar to'g'ridan-to'g'ri foydalanish imkonи beradidi. MHXS ni joriy qilishda O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni yangi tahriri (13.04.2016 yildagi O'RQ-404 son) qonunida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611 sonli qaroriga muvofiq, moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish bilan birga parallel ravishda yuritish usullaridan keng foydalanish nazarda tutilgan.

Shundan kelib chiqqan holda, moliyaviy hisobotlardagi kamchiliklar, izohlardagi tushuntirishlar va xatolar, qolaversa buzib ko'rsatishlarni oldini olishga va ularning to'g'ri yuritishiga yordam beradi.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJning hisob siyosatini 8-BHXS "Hisob siyosati" baholardagi o'zgarishlar va xatolar" standart asosida tuzish maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ yirik aksiyadorlik jamiyatilaridan biri bo'lib uning tarkibida UK va boshqa bir qancha tashkilotlar bo'lgani bois, uning hisobini yiriklashgan holda moliyaviy

hisobot tuzishga asos sifatida hisob siyosatining tegishli bandlaridan foydalanishga to'g'ri keladi.

Bu bandlar qay holda aks ettirilishiga etibor bersak bat afsil turkumlarga ajratilgan holda keltirib o'tilgan.

### Xulosa va takliflar.

1.Temir yo'l AJ korxonalarida moliyaviy hisobotni yuritish uchun 8-BHXS "Hisob siyosati" baholaridagi o'zgarishlar va xatolar standart asosida tuzilgan hisob siyosatiga amal qilish orqali moliyaviy hisobotning xorijiy va bo'lg'usi investorlar uchun foydalanishni shaffofigini ta'minlashga xizmat qiladi.

2. Hisob siyosatidagi o'zgarishlar asosan yangi MHXS majburiy ravishda joriy etilsa yoki amaldagi BHMSga o'zgartirish kiritilsa yoki ixtiyoriy, ya'ni korxona moliyaviy ma'lumotlardan foydalanish sifatni oshirish maqsadga muvofiq bo'lib, masalan asosiy vositani boshlang'ich qiymat usuli emas, balki qayta baxolangan qiymat usulidan foydalanish to'g'ri kelsagina amalgalashadi. Bu esa, moliyaviy hisobotdan tashqari foydalanuvchilar uchun yanada ishonarli ma'lumotlar olish imkonini oshirishga xizmat qiladi.

3. Hisob siyosati baholardagi o'zgarishlar hamda o'tgan davr xatolarini tuzatish asosida moliyaviy hisobni yuritish va ro'y bergan o'zgarishlarni o'z vaqtida moliyaviy hisobot qolaversa uning ilovalarida aks ettirish maqsadga muvofiq.

4. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ hisob siyosatining tegishli bandlari sifatida "umumiyligi qoidalari", moliyaviy hisobot yoritib berilgan shaklida tuzish orqali moliyaviy hisobot xalqaro standartlar asosida takomillashuviga erishiladi.

### Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

*Arnold J., Hope T., Southworth A., Kirkham L. (1994) Financial Accounting. 2-nd ed. Prentice Hall, P. 10.*

*Getman V. G., Terexova V. A., Shneyzman L. Z. (2004) Finansoviy uchet. M.: Finansы i statistika, 784 s.*

*Kieso D.E., Weygandt J.J., Warfield T.D. (2004) Intermediate Accounting. 11-th ed. N.Y.: John Wiley & Sons Inc., P. 2.*

*Kondrakov N.P. (2008) Buxgalterskiy uchet. -M.: INFRA-M, 717 s.*

*Mirziyoev Sh. (2021) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2021-yil 20 avgust kuni mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot.*

*Misirov K.M. (2023) One of the most critical concerns now is the transition to a green economy. INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT E-ISSN: 2620-6269. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD> Vol. 5 No. 12 / December.*

*Misirov X.M. (2023) Temir yo'l transporti korxonalarida aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilishning o'ziga xos jihatlari. "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali №5(13). 83-91 b.*

*Needles B.E., Anderson H.R., Caldwell J.C. (1987) Principles of Accounting. 3-nd ed. Houghton Mifflin Company, P. 10.*

*O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni yangi tahriri (13.04.2016 yildagi O'RQ-404 son).*

*Pardaev A.X., Pardaeva Z.A. (2019) Boshqaruv hisobi: Darslik /- T.: "Iqtisod-Moliya", -556 b.*

*Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldag'i «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>.*

*Sutton T. (2004) Corporate Financial Accounting and Reporting. 2-nd ed. Pearson Education Limited, P. 2.*